

TYPES OF CURRICULUM AND EVALUATION OF STUDENTS' KNOWLEDGE IN THE EDUCATION OF MODERN GEOGRAPHY

Abdullayeva D.N. –

Toshkent davlat pedagogika universiteti “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasida dotsent v/b.,
PhD.

Email: dilnozaabdullayeva699@gmail.com

Tel: 99 141-07-57

Ta'lim tizimi uzluksiz ravishda islohotlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir. Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Baholash - ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.


O'quv maqsadlari bu - muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi xosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va faoliyatni belgilaydi. Boshqacha aytganda – o'quv maqsadlari ta'lim jarayoni oxirida kutilayotgan natijadir.

O'quv maqsadlari qamrov ko'lamiga qarab uch turga ajratiladi.

Yo'naltiruvchi o'quv maqsadi – ta'lim jarayonining ustivor yo'nalishini ko'rsatadi.

Umumiy o'quv maqsadi - ta'lim jarayonining o'rta bo'g'iniga ta'lluqli bo'lib, ta'lim jarayonining ustivor yo'nalishini aniqlashtiradi.

Aniq o'quv maqsadi - kichik ko'lamdagi ta'lim jarayoniga ta'lluqli bo'lib, ko'zlangan natijani aniq ko'rsatadi.



Baholashdan maqsad: kasbiy ko'nikma va malakalarni baholash qator masalalarni xal etishni o'z oldiga maqsad qiladi.

Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchi: O'zlashtirilganlikning qay darajada amalga oshirilganligini aniqlash; davlat ta'lim standartlari talablarining qay darajada bajarilganligini aniqlash.

Ikkinchi: O'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonidagi xato va kamchiliklarini aniqlash; ta'lim mazmuni va metodikasini rejalashtirish.

Uchinchi: Ta'lim berish: So'rash va bajartirib ko'rish jarayonida o'quvchining xato hamda kamchiliklarini tuzatish; So'rash va bajartirib ko'rish jarayonida boshqalarga takrorlanish va saboq bo'lishini ko'zda tutish.

Baholashning ahamiyati:

o'zlashtirilganlik to'g'risida ma'lumot olinadi;

savol-javob jarayonida boshqa o'quvchilarga takrorlanish bo'ladi;

bilim, ko'nikma va malakalar egallanadi hamda mustahkamlanadi;

mashg'ulotning qaysi bo'lagiga yaxshiroq e'tibor berish kerakligi ma'lum bo'ladi;

o'qituvchi o'z kamchiliklarini anglaydi;

o'quvchi o'zining nimalarga qodir ekanligini biladi;

davlat ta'lim standartlarining bajarilish darajasi aniqlanadi;

ta'lim oluvchining o'rtoqlari, ota-onasi uning faoliyati xaqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Geografiya darslarida o'quvchilarni baholashdagi quyidagicha xatoliklar kuzatiladi:

hayrixohlik xatosi faoliyatni yuqori baholashga olib keladi;

yuqori talab qo'yish xatosi

o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan baho haqiqiysiga nisbatan past bo'lishiga sabab bo'ladi;

o'rtacha baho berish xatosi - masalan, mashg'ulotlar jarayonida (geografik xaritalar bilan ishlash, geografik masala va mashqlar va b.) guruhdagilarga ajratilgan o'quvchilar faoliyati natijasiga o'rtacha bir xil baho qo'yish.

Bunda o'quvchilarning ayrimlari oshirilgan bahoga, ayrimlari pasaytirilgan bahoga, qisman haqiqiy bahoga ega bo'ladi.

o'z fikrini o'zgartirmaslik xatosi - o'qituvchining o'quvchi faoliyatidagi o'zgarishlarni tan olgisi kelmasligi natijasida sodir bo'ladi.

yoqtirmaslik xatosi - ta'lim oluvchining ayrim hislatlari ta'lim beruvchiga yoqmasligi natijasida faoliyatni past baholashga sabab bo'ladi.

Quyidagi tamoyillar baholash tizimi samaradorligini oshiradi:

- o'quv maqsadlariga asoslanganlik; - haqiqiylik; - haqqoniylik; - ishonchlilik; - qulaylik.

Kasbiy ko'nikma va malakalarni baholash ikki shakilda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan (absolyut) baholash.

2. Me'yorga asoslangan (nisbiy) baholash.

Mezonga asoslangan (absolyut) baholas - bu, bilim, ko'nikma va malakalarni, o'quv maqsadlarini hisobga olib, oldindan belgilangan va hamma uchun bir bo'lgan mezonlar asosida baholashdir.

Me'yorga asoslangan (nisbiy) baholash - bu, bilim oluvchilarning erishgan natijalarini o'zaro taqqoslash orqali baholashdir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Abduvoxidov S.N., Ganiev Z.A. Geografiya ta'limi metodikasi, Samarqand-2021.
3. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o'qitish metodikasi. "Nodirabegim", T.: 2021.
4. Tolipov U.. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot asoslari. -T., 2005.
5. Ishmuamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste'dod – 2008.
6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: 2006

7. Internet saytlari:
8. <http://www.ziyonet.uz>
9. <http://www.pedagog.uz>
10. <http://www.geografiya.uz>